

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH VA RIVOJLANTIRISH

*Qamchibekova Roziya Xasanboy qizi  
ADPI, maktabgacha ta'lumi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lum tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish va qobiliyati hamda ularni ijodkorligini rivojlantirish masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lum tashkilotlar, bolalarni tasviriy faoliyati, rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash.

**Annotation:** The article describes the issue of training children in visual activities and developing their creativity and abilities in preschool educational organizations.

**Key words:** Preschool educational organizations, visual activity of children, drawing, clay, application, building-making.

**Аннотация:** В статье рассмотрен вопрос обучения детей изобразительной деятельности и развития их творческих способностей и способностей в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** Дошкольные образовательные организации, изобразительная деятельность детей, рисование, пластилин, аппликация, конструирование.

### KIRISH

San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u aniq fanlardan farqli, voqeа- xodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his tuyg'u bilan idrok qilinadigan shaklda, badiiy obrazlarda ifodalananadi.

Maktabgacha ta'lum tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat bilan tanishtirish orqali mehnatsevarlik, mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishda turli shakl, usul va vositalardan foydalilanadi.

"Ik qadam" dasturida katta yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, mehnati natijasidan qoniqish sifatlarini shakllantirish, hunarmandchilikka qiziqtirish, xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirish ta'kidlab o'tilgan.

### MUXOKAMA VA NATIJALAR

#### **Ta'lum metodlari:**

1. Ko'rgazmali metod orqali tabiat, olam, xayvonot olami, xashoratlar, buyumlar, kasblar bilan tanishtiriladi.

2. Og'zaki metodlarga tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning o'zaro suhbatlari kiradi.

3. Amaliy metodda bolalar o‘zlashtirilgan bilimlarini turli o‘yinlar orqali, rasmlar chizish, yasash, qirqish, bo’yash orqali mustahkamlaydilar.

Bu usullar orqali mashg‘ulotlar rang-barang hamda qiziqarli tashkil etiladi. Shuningdek, tasviriy faoliyat bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatsevarlik va badiiy estetik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning uzuksiz, izchil, maqsadga muvofiq tashkil etilishi ham tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalar bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagi shartlarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- mashg‘ulotlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash (aniq maqsad asosida mashg‘ulotlarning tashkil etilishi o‘z navbatida, vazifalarning to‘g‘ri belgilanishi, mashg‘ulot jarayonining umumiyligi holatini oldindan bashoratlay olish natijalarning taxminiy bo‘lsa-da, belgilab olinishi uchun sharoit yaratadi);

- mashg‘ulotlarni puxta reja yoki loyiha asosida tashkil etish (ushbu holat aniq maqsad negizida xususiy maqsadlarni aniqlash, mashg‘ulot jarayonining umumiyligi davri hamda bosqichlarida amalga oshirilishi talab etiluvchi vazifalarning mavjud vaziyatga muvofiqligini nazorat qilib borish, mashg‘ulot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish, har bir bosqichning yagona tizim mazmuniga muvofiq kelishiga erishish borasida imkoniyat yaratadi);

- mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqishda tarbiyalanuvchilarning xohish-istiklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish (nazarda tutilayotgan bu tarbiyalanuvchilarni mashg‘ulotlarga jalb etish, ularning mashg‘ulotlar jarayonida faollik ko‘rsatishlariga erishishni kafolatlaydi);

- mashg‘ulotlar jarayonida har bir tarbiyalanuvchiga nisbatan ularning psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish asosida individual yondashish (qayd etilgan holat tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida ruhan va jismonan toliqib qolishlarining oldini oladi, har bir tarbiyalanuvchiga uning ichki imkoniyatlariga mos keluvchi topshiriqlarning berilishini ta’minlaydi);

- mashg‘ulot jarayonida ushbu jarayonning asosiy sub’ektlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar shaxsining hurmat qilinishi, har qanday ko‘rinishdagi faoliklarini rag‘batlantirilib borilishiga erishish (mazkur o‘rinda rag‘batlantirish usullari sifatida ma’naviy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq).

Zero, maktabgacha tarbiya yoshi bolalarining psixologik xususiyatiga ko‘ra ular o‘zlarining eng oddiy xatti-harakatlariga nisbatan ham atrofdagilar e’tibor berishlarini, qo’llab-quvvatlashlarini istaydilar. Atrofdagilar tomonidan bolalarning juda oddiy darajada bo‘lsa-da, dinamik xususiyatga ega xatti-harakatlarining “Juda soz”, “Barakalla”, “Buni uddalay olasan deb kutgandim, yanglishmagan ekanman”“Berilgan topshiriqni sifatli qilib bajarishingga ishonaman”, “Juda sifatli bajarilibdi” kabi olqishlar yordamida rag‘batlantirilib borishi ularning mashg‘ulotlarga

bo‘lgan yondashuvlarini keskin darajada ijobiy ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Bolada tarbiyachi tomonidan berilayotgan topshiriqni o‘z vaqtida, sifatli bajarilishiga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptiradi, shuningdek, talab etilayotgan qoidalarga qat’iy amal qilish ko‘nikmalari shakllanadi). mashg‘ulotlar jarayonining oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga erishish samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Tasviriy faoliyat bilan tanishtirish mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar atrof-olamda bolalar faoliyatini va ularning o‘zini tuta bilishini, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo‘naltiradi. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyot, tabiat, musiqa yoki quruvchi bo‘ladimi nafosat va go‘zalliklarni ko‘ra olishi va tushuna olishi kerak. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlaridir. Bu mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtida uyuştiriladi. Kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo‘lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun bir guruh bilan uyuştiriladi. Kichik guruhda mashg‘ulotlar yilning birinchi yarmida 5-7 minutdan asta-sekin 15-20 minutgacha, o‘rta guruhda 20-25 minutgacha. Katta tayyorlov guruhda 30-35 minut o‘tkaziladi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini muvaffaqiyatli uyuştirish, unga zarur bo‘lgan materiallarni o‘z vaqtida tayyorlashga ham bog‘liqidir. Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iboratdir:

1. Tarbiyachi rasm va applikatsiya mashg‘uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog‘oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko‘ra). Qog‘oz varag‘iga oldindan orqa tomoniga bolalarni ismi, familiyasi, mashg‘ulot o‘tkaziladigan sana yozib qo‘yiladi.
2. Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo‘yadi (albatta 4-5 qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo‘yiladi).
3. Katta tayyorlov guruhlarida bolalar qo‘proq akvarel bo‘yog‘ini ishlatalilar. Oldindan bo‘yoqlar ho‘llangan bo‘lishi lozim. Mo‘yqalamlar yaxshilab yuviladi.
4. Mashg‘ulot uchun lattalar, bankachalarni tayyorlash zarur. Suv bankalarga mashg‘ulot boshlanish arafasida quyiladi.
5. Applikatsiya uchun rangli qog‘oz yig‘masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).
6. Plastelin, loy, gips ham oldindan tayyorlanadi
7. Loy haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plenkalarda saqlanadi. Tarbiyachi har bir bola uchun loy parchasini qo‘yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlari uchun ko‘rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho‘l yoki nam lattalar berilishi kerak.
8. Plastin ham rangi bo‘yicha tayyorlanib, rangdor mayda detallarni yasash jarayonida beriladi. Ko‘proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo‘yiladi.

9. Maktabgacha ta'lif muassasasida ko'rgazmali materiallar bo'lishi lozim. Masalan: predmetlar, o'yinchoqlar, illyustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san'at namunalari.

10. Har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko'rgazmalar bo'lishi kerak. Mashg'ulot uchun zarur bo'lgan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi kerak, navbatchilar bunda ularni mashg'ulot uchun tayyorlay olishlari lozim.

11. O'rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg'ulotga tayyorlanish jarayoniga ya'ni navbatchilikka jalb qilinadi. Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchilar vazifalarni tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi.

### XULOSA

Tarbiyachi guruhda bolalarni mashg'ulotdan keyin o'z joyini tartibga solishga, ya'ni qolgan loyni, mo'yqalamni, salfetkani, qalamni tarbiyachiga berishga o'rganadilar. Yilning boshida tarbiyachining o'zi materiallarni tayyorlaydi, so'ng alohida bolalarni materiallar tayyorlashga jalb etadi. Bu navbatchilik emas, balki ba'zi bolalar uchun topshiriqlar berish hisoblanadi (yil davomida tarbiyachi hamma bolalarni mehnat topshiriqlarini bajarishga jalb etishi lozim). Mashg'ulotdan so'ng bolalar, har bir o'z stollaridagi narsalarni oldin umumiy stolga olib kelishga o'rganadilar, so'ng tarbiyachi o'z yordamchilari bilan mo'yqalamlarini yuvadi, salfetkalarni yig'ib oladi. O'rta guruhda ham yilning boshida huddi kichik guruh kabi topshiriqlar beriladi. Yilning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni navbatchilikka jalb etadi. Ular bankalarga suv quyadilar, bo'yoqlarni qo'yib chiqadilar va boshqalar. Mashg'ulotdan so'ng bo'yoqlarni joyiga olib borib, suv va mo'yqalamlarni yuvib, joyiga qo'yadilar. Katta guruhdagi navbatchilar stol va stullarning qay tarzda turishini nazorat qilib, mashg'ulotdan so'ng stollar ustini artib chiqadilar, ular loy, bo'yoqni, mo'yqalamlarni stol ustiga qo'yib chiqadilar. Yelim ham qo'yib chiqadilar. Taxtachalarni yig'ib, bankachalarni yuvib joyiga qo'yadilar, qaychilarni tarqatib, mashg'ulotdan so'ng yig'ib chiqadila, bu guruhda navbatchilikka katta mustaqillik beriladi. Tarbiyachi bolalarga, navbatchilarga mashg'ulot uchun nimalar kerak bo'lishini aytadi, navbatchilar ularni tayyorlaydi. Tarbiyachi kuzatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AbdirasiJov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T., «Aloqachi», 2007.
2. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. -T., «G'afur G'ulom», 2004.
3. Nabiiev M.N. Rangshunoslik. T., «O'qituvchi», 1995
4. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: «IImZiyo», 2006.
5. Tasviriy san'at darsliklari. 1,2,3,4 - sinflar.
6. Hasanov R.x. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. «FAN», 2004.
7. B.Azimova.“ Naturmort tuzish va tasvirlash metodikasi “ Toshkent O'qituvchi,1984.